

O‘ZBEK TASAVVUF ADABIYOTIDAGI “SOCH” RAMZI HAQIDA MULOHAZALAR

Hoshimjon Ahmedov

Alisher Navoiy nomidagi ToshDO‘TAU O‘zbek adabiyotini
o‘qitish metodikasi kafedrasida katta o‘qituvchisi, filologiya fanlari nomzodi
ahmedov_60@list.ru

Jamoliddin Yoqubov

Andijon davlat universiteti o‘qituvchisi, mustaqil tadqiqotchi

Annotasiya.

Mazkur maqolada o‘zbek mumtoz adabiyoti, xususan, tasavvuf she‘riyatidagi “Soch” istilohi haqida mulohazalar bildirilgan. Bu ramzning she‘riyatda, mumtoz tasavvuf adabiyotida bajaradigan badiiy vazifalariga to‘xtab o‘tilgan. Turli o‘rinlarda ishlatilishiga qaramay, “Soch” ramzining umumiy-so‘fiyona ma‘nolari sharhlab o‘tiladi.

Kalit so‘zlar: o‘zbek mumtoz adabiyoti, tasavvuf falsafasi, “Soch” ramzi, badiiy talqin.

Barchaga ma‘lumki, adabiyotni ramzlarsiz to‘laqonli tushunish imkonsiz ish. O‘zbek mumtoz adabiyotidagi maxsus qo‘llanadigan ramz-simvollar alohida yondashuvni talab etadi. “Musulmon sharqining deyarli barcha ulkan adiblari u yoki bu ma‘noda tasavvuf bilan bog‘langanlar. Binobarin, bu adabiyot bilan tanishmasdan, ularni to‘liq tushunish dushvordir” [1, Bertels, 103-bet]. Darhaqiqat, “Sharq xalqlari tafakkuri tarixida chuqur ildiz otgan tasavvuf ta‘limotini yaxshi bilmay turib, Alisher Navoiy dunyoqarashi va adabiy merosini barcha murakkabliklari, falsafiy teranligi bilan to‘liq holda to‘g‘ri, haqqoniy yoritib berish mushkul” [2. Najmiddin Komilov, 149-bet]. O‘zbek mumtoz adabiyoti, xususan, Alisher Navoiy g‘azaliyoti ramz-simvollariga boy. “Simvolizm (ramzlar) muayyan maqsad yo‘lida g‘oyani anglatishga mo‘ljallangan usul. U bir lahzada abadiyatni yodga solguvchi vosita” [3, Uollek, Uorenn. 202-bet]. Masalan, tasavvufiy she‘riyatda ma‘shuqning yuzi – O‘llah yaratgan narsalar ichida eng mukammal ko‘zgu bo‘lib, O‘llah jamolini yuz komillik bilan zohir aylaydi. Yuzning hidoyat nurlariga qiyos qilinishi so‘fiyona adabiyotda keng tarqalgan tashbeh-istiora bo‘lib, Navoiyning quyidagi baytida ham ma‘shuqaning zarfishon chehrasi hidoyat shamiga o‘xshatilgan:

*Sochingda zarfishon chehrang zalolat shomida har yon
Tajalliy mash‘alidin yorug‘on shami hidoyatdur.*

[4. Navoiy, “G‘aroyibus-sig‘ar”, 180-bet]

Sochlarning gumrohlik kechasidir, – deydi ulug‘ shoir baytda, – nurafshon chehrang esa tajalliy mash‘alidan nur olib, oshiqlar qorong‘ida adashib qolmasligi uchun har yonga yoqib qo‘yilgan hidoyat shamidir.

Navoiyning boshqa bir baytida ham yorning sochi zulmatga, yuzi esa shamga tashbeh qilinib, mahbub yuzi hidoyat nurlari sifatida talqin qilingan:

*Zulfin ochganda zanax chohiga tushgay ming ko‘ngul,
Qo‘ymasa ul choh uza ruxsori shamin yorutib.*

(5. Navoiy, “Badoyeul-bidoya”, 77-bet)

(Mazmuni: Agar yor yuzining shamini yoritib qo‘ymaganda edi, u zulflarini yoyganda, minglab ko‘ngillar yor kuldargichining zindoniga tushib ketgan bo‘lar edi).

Shunday qilib, yuz – nur, nur bo‘lganda ham, oddiy nur emas, Haq oshiqlarini zalolatdan qutqarib, ularga to‘g‘ri yo‘lni ko‘rsatuvchi hidoyat nuridir. Yuzning so‘fiyona adabiyotda ko‘pincha sham, subh (tong), kunduz, oy va quyosh kabi nurafshon narsalarga, ba‘zan esa iymonga nisbat berilishi ham shu tufaylidir. Jumladan, quyidagi baytda aytilishicha, kufr zulmat bo‘lsa, iymon nurdir:

*Zulfi zunnorig‘a chirmang‘an uzorin ochdi yor,
Zulmati kufr ichra elga nuri iymondir davo.*

(6. Navoiy, “Badoyeul-vasat, 30-bet)

Baytda tilga olingan zunnor musulmon mamlakatlarida g'ayridinlar musulmonlardan ajralib turish uchun bellariga bog'lab yuradigan maxsus ip. She'riyatda esa yor sochining istoraviy ifodasi. Tamsil san'atining noyob namunasi bo'lgan mazkur baytning birinchi misrasida aytiladiki, yor zulfining zunnori bilan yashirgan yuzlarini ochdi. Ikkinchi misrada shoir bu holatni izohlab deydiki, axir kufr zulmatiga iymon davo bo'ladi-da! Tamsil she'riy san'atining qonuniyatlaridan kelib chiqiladigan bo'lsa, soch (zulf) – kufr, yuz (uzor) esa – iymon. Agar kufrning so'fiylik falsafasida ilohiy ma'rifatdan bexabarlik, iymonning esa ilohiy ma'rifat ekanligi esga olinsa, baytda shunday mazmun ifodalanganligi ma'lum bo'ladi: Ko'nglimdan Haqdan o'zga narsalarning suratlari g'oyib bo'lib, ilohiy jamol jilva qila boshladi, zero, ko'ngil oynasidagi olam xiraliklarini ketkazishning eng yaxshi chorasi ma'rifat nurlaridir.

Quyidagi baytda oshiq ko'nglining parishon holati ifodalangan. Baytda aytilishicha, mosivalloh – Oллоhdan o'zga narsalarning havasi ko'ngildagi ilohiy husn jilvasini xiralashtirib qo'ygan:

*Yuziga tushti zulf, aylang nazzora,
Ki bo'ldi kufr iymon birla mamzuj.*

(4.Navoiy, "G'aroyibus-sig'ar", 124-bet)

Ya'ni soch (uning qoraligi zulmatga qiyos) yuz(nur)ni to'smoqda, botiniy ma'noda – kufrni iymon bilan bartaraf etmoq lozim.

Sosh tafsili Alisher Navoiyning hamma she'riy devonlarida uchraydi. "Favoyidul-kibar" devonining 96, 98 va 100-g'azallarida ham "Soch" tashbehi talqinga tortilgan [7. Navoiy, "Favoyidul-kibar", 72-75-betlar]. 96-raqamli g'azaldan:

*Qovmag'il ko'nglimni, zulfung ichra orom aylagach,
Qushni kim ozod etibdur, bastai dom aylagach.*

[72-bet]

Ya'ni manzurga murojaat qilib aytadiki, zulfing (senga yetishish mashaqqatlarini anglab yetgach) zavqi-sururidan ayirma meni, chunki o'ljani qaysi ovchi qo'yib yuboradi? Xalqona aytganda "Yorni yor dermu kishi, yorning ozori bo'lmasa?!"

Yoki, 98-raqamli g'azalda:

*Tushkali ul dilraboning turrasi torida pech,
Turra toridek tushubtur ko'nglum atvorida pech.*

[74-bet]

Yorning eshilib-to'lg'anib yoyilib turgan sochlaridek ko'nglimga ishqiy g'ulg'ulalar tushibdi. Asl ma'noda ham chiroyli o'xshatish, hamda botiniy – so'fiyona ma'noda ham o'ziga xos poetik ifoda zohir bo'ladi – ko'nglimda yorga yetishmoq ilinjida turfa orzular barq uradi. Yana, 100-raqamli g'azalda:

*Qayd aylarg'a junun ahlini bor ul ikki soch,
Har biri necha tugun, har tuguni necha quloch.*

[75-bet]

Bu baytda asl oshiqona ma'no aks etgan. Ya'ni, uzun ikki o'rim qora sochli sanam ne-ne oshiqolarni o'ziga rom etadi. Aytadilarki, "ayolning sochlari uning yarim husni erur"... Bu yerda shunisi ayon bo'ladi, Navoiy sof oshiqona tasvir so'nggida yana so'fiyona ma'noga qaytadi:

*Ey Navoiy, tilasang eldinu o'zdin maxlas,
Chiqqil o'zluk yo'lidin chustu fano ko'yiga qoch.*

[75-bet]

Demak, garchand shoir zohiriy go'zallik vasfida betakror poetik ifodalar bitsa-da bosh maqsad – so'fiyona g'oyani mahkam tutadi.

Aytilganlardan kelib chiqib, yuzning so'fiyona ma'nolari haqida shunday xulosa chiqarish mumkin: yuz so'fiyona istilohda ilohiy husn tajalliysi yoki ilohiy husn jilvalanib turadigan mazhar bo'lib, tiniqligi jihatidan ko'zguga, nurafshonligi jihatidan esa tajalliyga o'xshaydi. Yuz o'tmish adabiyotida mazhar sifatida suv va ko'zguga, tajalliy sifatida esa zarvara, sham, subh, kunduz, oy, quyosh, iymon va o't singari nurafshon va ezgulik, ilohiy lutf bilan bog'liq ijobiy tushunchalarni ifodalovchi narsalarga tashbeh qilingan. Soch esa ana shu ilohiy go'zallikni to'sguvchi, yashiruvchi uzv bo'lib gavdalanadi. Sochning qoraligi esa – ishq yo'li mashaqqatlariga ishora, soch jingalaklari esa ilohiy ishq yo'lining mushkulotlariga, sinovlariga ishoradek.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Бертелс Е. Э. “Сўфизм ва тасаввуф адабиёти”. Рус тилидан Ибодулла Мирзаев таржимаси. Т.: “Ўзбекистон Миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти. – 2005. – 104 б.
2. Нажмиддин Комилов. Тасаввуф. Т.: “O‘zbekiston”, 2009. – 448 б.
3. Р. Уэллек, О. Уоррен. Теория литературы. Перевод с английского. М.: “Прогресс”. 1978.- 326 с.
4. Алишер Навоий. “Ғаройибус-сиғар”. ЎзССР давлат бадиий адабиёт нашриёти, Т.-1963. – 496 б.
5. Алишер Навоий. Мукамал асарлар тўплами. 1 том. “Бадойиъ ул-бидоя”. Т.:”Фан”, - 1987. – 724 б.
6. Алишер Навоий. Мукамал асарлар тўплами. 5 том. “Бадойиъ ул-васат”. Т.:”Фан”, - 1990. – 544 б.
7. Алишер Навоий. Мукамал асарлар тўплами. 5 том. “Фавойидул-кибар”. Т.:”Фан”, - 1990. – 568 б.
8. Yo‘ldosh Q, Yo‘ldoshM. Badiiy tahlil asoslari. – Т.: Kamalak, 2016. – 464 б.